

HARBIY FANLARDAN AMALIY MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI

Bayxanov Maxamad Baxtiyarovich

*O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi
o'qituvchisi Qurolli Kuchlari xizmatchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada harbiy fanlardan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishning ahamiyati, harbiy ta'lim sohasida kursantlarni mustaqil tayyorgarlikda olayotgan bilimlari atroflicha bayon etilib, zamonaviy talablarga javob beradigan yuqori malakali harbiy kadrlarni tayyorlashda o'ziga xos jihatlar yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Mustaqil tayyorgarlik, qo'llanma, manba, faoliyat, amaliy mashg'ulot, usul, harbiy ta'lim, harbiy majburiyat va harbiy intizom.*

Аннотация: *В данной статье освещены значение организации практической подготовки по военным наукам, знания, которые получают курсанты при самостоятельной подготовке в области военного образования, и ее особенности при подготовке высококвалифицированных военных кадров, отвечающих современным требованиям.*

Ключевые слова: *Самостоятельная подготовка, учебное пособие, ресурс, деятельность, производственная практика, методика, военная подготовка, воинская обязанность и воинская дисциплина.*

Abstract: *In this article, the importance of organizing practical training in military sciences, the knowledge that cadets receive in independent training in the field of military education, and its specific aspects in training highly qualified military personnel who meet high requirements are highlighted.*

Key words: *Independent training, manual, resource, activity, practical training, method, military training, military commitment and military discipline.*

KIRISH

Mashg'ulotlarni tashkiliy jihatdan yaxshi uyushtirish, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Umumharbiy Nizomlari talablarini kursantlarga amaliy jihatdan to'g'ri yetkazish maqsadida ta'lim muassasasi rahbarining buyrug'iga asosan bo'linmalarda o'quv guruhlar va seksiyalari tashkil etilib, ularga intizomli va tashkilotchilik qobiliyatiga ega kursantlardan guruh va seksiya komandirlari tayinlanadi. Kursantlarning mashg'ulotlarda olgan bilim va ko'nikmalari malaka amaliyotlarida mustahkamlanadi.

Bugungi kundagi harbiy taktik bo'linmalarni (batalyon, vzvod, guruh va seksiyalarni) ushbu harakatlarda egallagan o'rnini sezilarli darajada oshib borayotganligi hamda noqonuniy qurollangan tuzilmalarga qarshi kurashishda ushbu omillarni muhim o'rin egallashi oliy-harbiy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilaridan shaxsiy tayyorgarlik va bilimlarni oshirib borishni, ushbu bilimlarni mohirlik bilan kursantlarga yetkazib berishni talab etadi.

Ko'pchilikka ma'lumki, o'qishga xohish-istagi bo'lmaganni o'qitish qiyin jarayon. Shunday ekan, o'quv jarayoni kursantlarda istak uyg'ota oladigan darajada tashkillashtirilishi lozim.

ASOSIY QISM

Harbiy fanlardan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishning ahamiyati bo'yicha mashg'ulotlarni olib borishdagi ta'lim berish ham xuddi boshqa fanlardagi kabi ta'lim jarayoni (o'qituvchini faoliyati) va o'zlashtirish jarayoni (kursantlarning faoliyati)dan tashkil topadi.

Kursantlarning o'zlashtirish jarayonidagi faoliyatlari bilimlar, malakalar va ko'nikmalarni egallashdan iborat bo'ladi. O'qitish jarayoni tarbiya jarayoni bilan chambarchas bog'langan holda amalga oshiriladi. Bu esa kursantlarni milliy g'oya asosida tarbiyalab, ularni O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarga bo'lgan hurmatini oshiradi.

Malaka va ko'nikmalarni shakllantirish o'quv jarayonining tarkibiy qismi hisoblanadi. Malaka – kursantlar tomonidan o'zlashtirilgan bilimlar asosida qo'yilgan vazifa va sharoitlarga muvofiq harakatlar kompleksini bajarish demakdir. Malakani shakllantirishga xarita yordamida azimutni aniqlashni misol qilish mumkin.

Ko'nikma – biron bir harakatni ko'p martalab takrorlash orqali hosil qilinadi. Ta'lim berish jarayoni ketma-ketlik bilan amalga oshiriladi. Ketma-ketlik o'z navbatida quyidagi bosqichlardan iborat bo'ladi:

- kursantlar oldiga topshiriq qo'yish;
- ularda bilimga bo'lgan qiziqishni uyg'otish;
- qabul qilingan materialni tahlil qilish, umumlashtirish;
- ilmiy tushunchalarni hosil qilish; talablarni o'rganish;
- egallagan bilimlarni mustahkamlash va takomillashtirish;
- malaka va ko'nikmalarni shakllantirish;
- bilim, malaka va ko'nikmalarni qo'llash;
- kursantlarni egallagan bilim, malaka va ko'nikmalarini tekshirish;
- ta'lim berish natijalarini tahlil qilish.

Ta'lim muassasalarida o'quv masalalari, harbiy-pedagogika fanining yutuqlari va uning tarkibiy qismi – didaktika asosida tuziladi.

Didaktika (grekcha yetaklovchi) – bu ta'lim va ma'lumot nazariyasini ishlab chiqadigan pedagogika tarmog'idir.

Harbiy didaktika – bu harbiy ta'lim va ma'lumot nazariyasini ishlab chiqadigan harbiy pedagogika tarmog'i hisoblanadi. U ta'lim jarayoni qonuniyatlarini o'rgatadi, prinsiplarini shakllantiradi, uslublarni aniqlaydi va kuzatadi, ta'limning tarbiyaviy ahamiyatini o'rganadi, undan foydalanishning yanada samarali yo'llarini aniqlaydi.

Ta'lim jarayoni va natijasi – bilim, qobiliyat va ko'nikmalarni o'zlashtirish hisoblanadi. Ta'lim – bilim, malaka, ko'nikmalar va anglash faoliyatini o'zlashtirish jarayoni bo'lib, bu jarayon yuqorida bayon etilgani kabi ikki taraflama amalga oshiriladi: birinchi taraf ta'lim beruvchi (o'qitish), boshqa taraf esa ta'lim oluvchi (o'qish) hisoblanadi.

Mashg'ulotni yaxshi tashkil etish, uni qiziqarli, ko'rgazmali va yuqori ilmiy darajada o'tkazish har bir o'qituvchi uchun majburiy talablardan hisoblanadi. Bulardan tashqari harbiy

pedagog guruhlar bilan nazariy materiallarni tashkil etadigan mashg'ulotlardan tashqari, harbiy xona va o'quv joylardagi amaliy mashg'ulotlardan o'q otish, taktik-saf mashg'ulotlari, harbiy sport o'yinlari, o'zbek xalqining inqilobiy, jangovar va mehnat shuhrati joylariga (harbiy qism, muzeylarga) tashriflar va ekskursiyalarni tashkil qiladi hamda o'quv kinofilmlar va teatr tomoshalarini keng qo'llaydi.

Harbiy fanlardan mashg'ulotlar – nazariy, amaliy, ko'rgazmali, taktik, taktik-saf va nazorat shakllaridan iborat bo'lib, ularning aksariyati amaliy hisoblanadi.

Nazariy bilimlar – dala o'quv maydonlarida jangovar o'quvlarda bajariladigan mashqlar, harakatlar va amallar bilan mustahkamlanib, nazoratdan o'tkazilib boriladi.

Nazariy mashg'ulotlar (ma'ruza, suhbat) og'zaki bayon uslubi bilan o'tkazilib, ular o'rganiladigan bo'lim bo'yicha kursantlarga ilmiy bilimlarning asosini, shuningdek, dialektik o'zaro bog'liqlikda o'quv materialini, murakkab savolarini ochib berishni, ijodiy fikrlashning rivojlanishi va ularda to'g'ri dunyoqarashini shakllantirishga yordam berishni, nazariya va amaliyotning dolzarb masalalarini, fanning zamonaviy yutuqlarini aks ettirishni va mashg'ulotlarning boshqa turlari hamda mustaqil ishini tashkil etish va o'tkazish uchun asos bo'lishi lozim.

Amaliy mashg'ulot – bu pedagogning kursantlar bilan faol suhbatga kirishishiga yo'naltirilgan, nazariy bilimlarni amalda qo'llash sharoitini beruvchi o'qitish shaklidir. Amaliy mashg'ulotlarni tashkiliy shakllari deganda, pedagog va kursantlarning maxsus tashkil etilgan, belgilangan tartibda va muayyan rejimda o'tadigan faoliyati tushuniladi.

Amaliy mashg'ulotlar qurol-aslaha, maxsus vosita, jangovar texnika va taktik harakatlarni amalda o'zlashtirish, ularni qo'llash, ma'lum bir ko'nikmalarni ishlab chiqish, ularda turli usul va harakatlar, me'yor va ta'lim dasturiga muvofiq boshqa masalalarni ko'rib chiqish maqsadida o'tkaziladi. Amaliy mashg'ulotlarda olingan bilim va ko'nikmalar takomillashtiriladi.

O'quv joyidagi kursantning amaliy ishi – mavzuning bosh maqsadini tashkil etadi. Ta'limning yakuniy bosqichi amaliy mashg'ulot hisoblanadi. Ular odatda o'quv ob'ekti va poligonlarda o'tkaziladi.

Misol uchun, jismoniy tayyorgarlik mashqlari harbiy xizmatchilarning umumiy kasbiy tayyorgarligi tizimida muhim o'rin tutib, qo'shinlar kasbiy tayyorgarligining asosiy fanlaridan biri hisoblanadi.

Jismoniy tayyorgarlik mashg'ulotlari jismoniy sifatlarni yaxshilash va rivojlantirishga, harbiy-amaliy harakat ko'nikmalarini shakllantirish va takomillashtirishga, salomatlikni mustahkamlash va harbiy kasbiy faoliyatning salbiy omillari ta'siriga qarshilik ko'rsatishga qaratiladi.

Ko'rgazmali mashg'ulotlar – kursantlarni harbiy qism shaxsiy tarkibining joylashuvi, hayoti, qurollanishi, harbiy texnikasi va muhandislik qurilmalardan foydalanishning eng samarali uslublari bilan tanishtirishda tashkiliy va uslubiy ishlar namunalarni ko'rsatish maqsadida o'tkaziladi.

Boshqa fan mashg'ulotlari kabi harbiy fanlar bo'yicha mashg'ulotlar ham uch qismdan iborat bo'ladi: kirish, asosiy va yakuniy.

Kirish qismi – fanning xususiyatlari, mashg'ulotni o'tkazish uslubining mazmuni va miqdor elementlaridan kelib chiqadi.

Asosiy qismda – harbiy pedagog yangi mavzuni, o'quv - tarbiyaviy maqsadlarni va ularni tatbiq qilish yo'llarini e'lon qiladi. Kursantlarni qiziqishini shakllanishi uchun maqsad va vazifalarni to'g'ri qo'yish katta ahamiyatga ega. Harbiy pedagog so'zlaridan olinadigan bilim va amaliy ko'nikmalarining muhimligini va kerakligini kursant his etishi lozim.

Amaliy harakatlarni o'rganishda odatda quyidagi tartib qo'llaniladi:

usul va harakatlarni bajarishda ta'lim oluvchining erishishi kerak bo'lgan tezlikda, harbiy pedagog tomonidan o'rganilayotgan usul va harakatlarni qoida va tartiblarini bajarilishini tushuntirgan holda ko'rsatish;

bajarilayotgan harakatni elementlarga bo'lib, ularni sekinlashtirilgan holda ko'rsatish;

ta'lim oluvchilar bilan ko'rsatilayotgan elementlarni, avval sekin, so'ng meyordagi tezlikda bajarib anglab olish, sinab ko'rish va o'rganish;

alohida elementlarni umumiy harakatga sekin-asta qo'shish va ko'nikma hosil qilish maqsadida ko'p marta takrorlash va berilgan meyorgacha yetkazishni nazarda tutishi zarur.

Tushuntirishni soddadan murakkabga, xususiydan umumiyga (individual uslub) yoki aksincha, avval hodisa tushunchasini berib, so'ng esa uni asoslab, sabab va natijalar bilan bog'liqligini ochib tushuntirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Amaliyotda ikki usulni bir mashg'ulotda, ya'ni o'quv materialini qismlarga bo'lib, birini induksiya usulidan foydalangan holda muvaffaqiyatli olib borish, boshqasini esa deduktiv uslubni qo'llagan holda tadbiq qilish mumkin. O'quv materialini qismlarga bo'lib bayon etib, avval bayon etilgan materiallarni aytilayotgan qoidalar bilan bog'lanishi, fanning ichki va fanlararo bog'liqliklarni hisobga olgan holda keyingi o'quv materialining qismiga asos bo'lib xizmat qilishi uchun uning tuzilishidagi mantiqiylikka qaratish lozim.

Bayon etilgan materiallarni kursantlar to'la o'zlashtirishlari uchun ba'zi bir qoidalarga rioya etish lozim:

umumiy va ortiqcha fikrlashlardan kochish, fikrni aniq va lo'nda ifoda etish;

kirish so'zi, uzun gaplarni, ehtiyojsiz ergashgan qo'shma gaplar va sifatdoshlarni ishlatmaslik;

imkon boricha murakkab atamani soddaga tushuncha bilan, chet tili so'zini esa ona tili so'zi bilan almashtirish.

kursantlar uchun yangi bo'lgan so'zlar va tushunchalarni auditoriya yozma taxtasiga yozib chiqish;

materialni tartib bilan bayon etganda, ularni alohida elementlarga bo'lish;

mashg'ulotlarda kursantlarning diqqat-e'tibori va faolligini oshirish.

Agar kursantlar mashg'ulot jarayonida faol bo'lishmasa, hech qanday pedagogik ta'sir etish vositalari ularni chuqur va mustahkam bilimlar bilan ta'minlay olmaydi. Mashg'ulotlarda

kursantlarning doimiy e'tiboriga erishish uchun o'quv materialiga qiziqish uyg'otish orqali ular muntazam ushlab turiladi.

Ma'lumki, qiziqishni butun mashg'ulot mobaynida ushlab turishdan ko'ra uyg'otish yengilroq. Kursantlarni qiziqtirish, ongli faoliyatini faollashtirish, butun mashg'ulot mobaynida mavzuga bo'lgan qiziqishni saqlab qolish vazifasi turlicha hal qilinadi. Bu harbiy pedagogning individual xususiyatlari, uning tayyorgarlik darajasi, pedagogik tajribasi va hokazolarga bog'liq.

Mashg'ulotda o'quv materialini bayon etishda kursantlarga savollar berish tavsiya etiladi. Harbiy pedagog tomonidan savol berib qolinishi ehtimoli borligi uchun kursantlar uni diqqat bilan eshitadilar. Kursantlarning javobi o'quv materialini qanchalik o'zlashtirilganlik darajasini bildirib, xulosa qilishga imkon beradi. O'quv materialini og'zaki bayon etishda nafaqat nutq madaniyati, balki tilning sofligi, ehtiyojsiz ishlatiladigan ortiqcha so'zlarning yo'qligi («anaqa», «demak», «kerak bo'lsa» va hokazo) balki buyruq berishga xos bo'lgan ixchamlik, aniqlik, to'g'rilik, ifodalilik ham muhim hisoblanadi. Bularning hammasiga mashq qilish orqali erishiladi va harbiy pedagogning doimiy mustaqil ishi natijasi hisoblanadi.

Mashg'ulotning yakuniy qismi – bu natijalarning tahlilidir. Darsning bu qismi kursantlarga o'rganilgan materiallarning asosiy masalalarini nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar bilan bog'liqligini eslatishni maqsad qilib qo'yadi. Harbiy pedagog bu qisqa vaqt ichida mashg'ulotning asosiy mazmunini qisqacha qaytarib o'tadi, ijobiy va salbiy tomonlarni ko'rsatadi. Mavzuni mustahkamlash va kursantlarning o'zlashtirish maqsadida ularga savollar bilan murojaat qiladi. Mustaqil tayyorlanish uchun vazifa beriladi. Harbiy pedagog mavzuning vazifasini, bo'limlarini qanday qilib mustaqil o'rganish kerakligini tushuntirib o'tadi.

Harbiy pedagog dala (amaliy) mashg'ulotlarini tashkil qilish va o'tkazishga katta e'tibor qaratishi talab etiladi. U xavfsizlik choralariga amal qilishni qisqa vaqtli harakatning bir martalik jarayoni emasligini bilishi, mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazishda qatnashuvchilar tomonidan qoidalarga rioya etilishini ta'minlashi lozim.

Harbiy ta'limning o'ziga xos tomonlari, uning amaliy mashg'ulotlarda qo'llaniladigan tushuntirish (so'zlab berish), ko'rsatish, mashq qilish kabi usullari hozirgi kunda ham amalda muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda.

Ayrim professor-o'qituvchilar tomonidan harbiy ta'limni o'ziga hosligi tufayli uni texnologiyalashtirishga hojat yo'qligi ta'kidlanib, ushbu ta'limdagi an'anaviy metodlardan voz kechmaslik lozimligi uqtiriladi. Biroq fikrni bir tomonlama aytilgan deb hisoblash kerak. Chunki harbiy ta'lim ham ta'limning bir turi sifatida metodik va texnologik tomondan rivojlantirilishi davr talabi bo'lib qolaveradi. Unda qo'llaniladigan metod va texnologiyalar to'g'risida soha o'quv qo'llanmasida ma'lumotlar mavjud. Bunda, metod va texnologiyani mavzuga qarab tanlash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Harbiy ta'limning dala va amaliy mashg'ulotlarida keys stadi metodining imkoniyatlari kengroq. Shu sababli bu metodni harbiy ta'lim uchun ham moslashtirish ko'p jihatdan o'rinli ekanligini ta'kidlash lozim. Ma'lumki, keys – yaxlit axborotli majmua bo'lib, aniq vaziyatlarni tahlil qilish, ijodiy fikrlash va to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

XULOSA

Bo'lg'usi ofitserlar ta'lim olish jarayonida harbiy xizmat faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishlari uchun tegishli bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar. Shu bilan birga ularning tafakkuri rivojlanadi, irodasi va xarakteri chiniqadi, ma'naviy-ahloqiy va jangovar sifatlari, hissiy-irodaviy turg'unligi, jangovar holatlarda aniq va ishonchli harakat qilish uchun ruhiy tayyorgarligi shakllanadi. Bunday vazifalarni amalga oshirish uchun harbiy ta'lim jarayonini tashkil etishda turlicha yondashuvlar mavjud. Harbiy ta'lim standartini belgilashda – ta'lim jarayonining tarkibi, uning mazmunini modernizatsiyalash va zamonaviy pedagogik texnologiyani qo'llash imkoni hisobga olingan.

Qurolli Kuchlar doim mamlakatimiz erki va mustaqilligi, demokratik islohot va fuqarolik jamiyatini shakllantirish bo'yicha keng miqyosli rejalarni amalga oshirish, yurtimizda tinchlik va osoyishtalikni ta'minlashning ishonchli kafolati bo'lgan, bo'lmoqda va bo'lib qoladi.

O'zbekiston Armiyasi istalgan sharoitda har qanday tajovuzga qarshi munosib javob qaytarishga qodir bo'lishi lozim. Bugungi kun komandiri esa zehn-zakovatli, yuqori malakali bo'lishi, murakkab (tezkor) vaziyatda nostandart qaror qabul qila olishi, bo'ysunuvchi bo'linmani jangda ham, kundalik faoliyatda ham mohirona boshqara olishi lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrdagi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi O'RQ-406-son Qonuni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Muraajatnomasi. Xalq so'zi gazetasining 2020-yil 30-dekabrdagi 276 - soni.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-fevraldagi 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nilishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi. Xalq so'zi gazetasining 2021-yil 4-fevraldagi 25-soni.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 29 yilligi va Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan yo'llagan bayram tabrigi. Vatanparvar gazetasining 2021-yil 15-yanvardagi 2-soni.

5. O'.R. Urunov "O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi qo'shinlarida mansabdor shaxslarni yosh ofitserlarni (mutaxassis)larni professional shakllanish va adaptatsiya davrida qo'llab-quvvatlashga qaratilgan faoliyatining samaradorligini oshirish yo'llari", Qo'llanma. – T.: O'R MV AKT va AHI nashri, 2021 y.

6. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi harbiy-ilmiy tadqiqotlar Markazining "Mudofaa vazirligi qo'shinlarida Oliy-harbiy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining faoliyatini o'rganish natijalari va O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasida o'quv-tarbiyaviy jarayonni takomillashtirish" bo'yicha tayyorlangan hisobot materiallari. - T.: O'R QK Akademiyasi, 2019 y.